XALQ DEPUTATLARI QOROVULBOZOR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 2-sentabr VII-16-98-2-38-K/25 Qorovulbozor tumani

Qorovulbozor tumani mahalliy byudjetining ijrosi jarayonida maqbullashtirilgan xarajatlar hisobiga bo‘shab qolgan mablag‘larni qo‘shimcha manbalari sifatida yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 126-moddasiga asosan mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari xalq deputatlari tuman Kengashining qarorlariga asosan yo‘naltiriladi.

Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 119-moddasiga asosan tuman mahalliy byudjetining 2025 yil ijrosi jarayonida maqbullashtirilgan xarajatlar hisobiga bo‘shab qolgan mablag‘larni qo‘shimcha manba sifatida yo‘naltirish bo‘yicha tuman hokimligidan takliflar xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritilgan.

O‘z navbatida, ushbu takliflar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 29-noyabrdagi KQ-5-V-sonli qaroriga asosan jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish uchun belgilangan tartibda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari (“regulation.gov.uz”) portaliga joylashtirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 27 va 119, 126-moddalari hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Qorovulbozor tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari - tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i G‘.Niyozovning takliflariga asosan Qorovulbozor tumani mahalliy byudjeti ijrosi jarayonida xarajatlarni maqbullashtirish hisobiga bo‘shab qolgan mablag‘larni tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari sifatida shakllanganligi munosabati bilan ushbu mablag‘lar hisobidan tumanda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatdagi tadbirlarni o‘z vaqtida moliyalashtirish uchun ilovaga muvofiq yo‘naltirishga rozilik berilsin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi hamda tuman G’aznachilik xizmati:

amaldagi budjet qonunchiligi talablari asosida maqbullashtirilgan xarajatlar hisobiga bo‘shab qolgan mablag‘larni tuman mahalliy budjetining 2025-yil qo‘shimcha manbalari sifatidayo‘naltirish yuzasidan tegishli o‘zgartirishlarni belgilangan tartibda kiritish;

ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi yuzasidan tizimli monitoring yuritish, iqtisod qilingan mablag‘larni tuman budjetiga qaytarish bo‘yicha takliflarning kiritilishini ta’minlash topshirilsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini ta’minlash tuman hokimining moliya-iqtisod va kambag’allikni qisqartirish bo‘yicha birinchi o‘rinbosari - tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig’i G‘.Niyozovga hamda ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha doimiy komissiyasi (Sh.Suvonov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi  HAMROYEV O‘TKIR SHOMAHMADOVICH

Xalq deputatlari Qorovulbozor tumani
Kengashining
2025-yil 2-sentabrdagi
VII-16-98-2-38-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Qorovulbozor tumani mahalliy byudjeti ijrosi jarayonida maqbullashtirilgan xarajatlar hisobiga bo‘shab qolgan mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlar

mln.so‘mda

№	Tadbirlar nomi	Yo‘nalti-riladigan mablag‘lar miqdori	Mablag‘ oluvchi nomi
1.	MIBning 04.07.2025 4-2002-2501/2220-sonli qaroriga asosan “O‘rta osiyo suv qurilish” MCHJ tomonidan qilingan ishlar yuzasidan vujudga kelgan qarzdorlik qoplash	201,0	Obodonlashtirish boshqarmasi
2.	MIBning 04.07.2025 4-2002-2501/2221-sonli qaroriga asosan “Buxoro neft bazasi” MCHJ tomonidan yomm mahsulotlari yetkazib berish oqibatida vujudga kelgan qarzdorlik qoplash	278,0	Obodonlashtirish boshqarmasi
3.	Obodonlashtirish boshqarmasi balansidagi ichki ko‘chalar, piyodalar yo‘laklari va ko‘kalamzorlashtiriladigan hududlarni kadastr pasportlarini ishlab chiqish uchun	301,0	Obodonlashtirish boshqarmasi
4.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2023 yildagi 57-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida quyosh panellari sotib olish	70,0	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi (3-umumiy o‘rta ta’lim muassasasi)
		70,0	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi (5-umumiy o‘rta ta’lim muassasasi)
		70,0	Madaniyat bo‘limi
		70,0	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi

		140,0	Tuman hokimligi
5.	Maktab va maktabgacha ta’lim bo‘limiga qarashli tashkilotlarga davlat ramzlari burchaklarini tashkil etish xarajatlari	62,0	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi
6.	Maktab va maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlarining “Davlat tili”ga o‘qitish xarajatlaridan vujudga kelgan qarzdorlikni qoplash maqsadida	28,0	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi
7.	Tumandagi 1 va 2-son maktabgacha ta’lim tashkilotlariga muzlatkich va sovutgichlar xarid qilish uchun	100,0	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi
8.	Tuman Madaniyat bo‘limi binosiga va Shodlik istirohat bog‘iga Davlat ramzlari hamda zamonaviy turniket, kuzatuv kameralari o‘rnatish	300,0	Madaniyat bo‘limi
9.	Tuman hokimligi binosida ta’mirlash va tashqi hojatxona qurish	200,0	Tuman hokimligi
10.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida 2025-yil 15-may kuni maktabgacha va maktab ta’limi bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishda tumanlardagi “Kasbiy rivojlanish kuni” tadbirlari tashkil etilishi belgilangan tayanch maktablarda kasbiy mahorat xonasini tashkil qilish va to‘liq jihozlash xarajatlari uchun	163,0	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi (2-umumiy o‘rta ta’lim muassasasi)
	JAMI	**2053,0**	

** O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan holda, tegishli o‘zgartirishlar kiritiladi.*